

ABDULLA AVLONIYNING “TURKIY GULISTON YOXUD AXLOQ” ASARIDAGI
AXLOQIY TUSHUNCHALAR

Bahriddinova Yulduz Abror qizi

O'zbekiston-Finlandiya Pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Abdulla Avloniyning "Turkiy Guliston yoxud axloq" asarining tarbiyaviy ahamiyati yoritib berilgan. Undagi hikmatli so'zlar sharhi keltirib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *Ta'lim, tarbiya, inson, jamiyat, axloq, ma'naviy, barkamol, yetuk, ma'rifat, saodat.*

Ma'lumki har bir jamiyatning boyligi uning moddiy boyliklariga qarab emas, balki xalqning ma'naviy to'kisligiga qarab o'lchanadi. Jamiyatning ravnaqi va kelajagi ana shu jamiyatdagi xalqning ma'naviy kamolotiga bog'liqdir. Ma'nan yetuk insonlar jamiyatni yuksaltiradi, ma'naviy qashshoq insonlar esa aksincha.

O'sib kelayotgan yosh avlodni ma'nan barkamol, yetuk salohiyatli qilib ulg'aytirishda ta'lim-tarbiyaning roli muhim ahamiyatga ega. Respublikamiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Toshkentda bo'lib o'tgan "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash davr talabi" mavzusidagi anjumanda so'zlagan nutqida yosh avlod tarbiyasi haqida alohida to'xtalib o'tdi. "Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala - bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim - yoshlar. Mayli yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan" - deya ta'kidlab o'tdi. Xalqni ilm-ma'rifatli bo'lishga undaydi va jamiyatga fidokor xizmat qiladi. U bolalar uchun yangi maktab ochib, bu maktabda bolalarni o'zi o'qitadi. Adib "Birinchi muallim", "Turkiy Guliston yoxud axloq", "Maktab gulistoni" singari darsliklari bilan milliy uyg'onish adabiyotining maydonga kelishi va rivojiga katta hissa qo'shgan. U yaratgan asar va darsliklari o'zining bolalar saviyasiga mosligi, o'quvchilarni tezroq savodxon qilishga yo'naltirilganligi bilan boshqa ta'limiy kitoblardan alohida ajralib turadi. Abdulla Avloniyning "Turkiy Guliston yoxud axloq" asari yoshlarning axloqiy tarbiyasida katta ahamiyatga ega bo'lib, yosh avlod uchun ma'rifat darsligidir. Bu asarni quyoshga qiyoslasak, quyosh nuri tugamaganidek, bu asarda ham ma'rifat nuri cheksizdir.

Asarda axloqni "Insonlarni yaxshilikka chaqirguvchi, yomonlikdan qaytarguvchi bir ilmdir" deydi. Adib "axloq" va "ilm"ni bir-biriga yonma yon qo'yadi. Axloq - bu

insonning ko'rkli hisoblanib, unda insonning ijobiy va salbiy hislatlarini ko'rsatib bera oladigan ko'zgudir. Ilm esa bizning hayotimiz davomida doimo kerak bo'ladigan ma'rifat xazinasidir. Inson qancha ilmi bo'lsa, u shuncha yuksaladi, yaxshi yomon oq-u qorani taniydi. Ilm go'yoki hech qachon tugamaydigan misli musaffo, zilol suvdir. Inson chanqoqligida suvni ichsa o'zini tetiklashgan holda his qiladi. Ilm o'rgangan kishida ham shunday his paydo bo'ladi. Ilmi insonning dunyoqarashi juda keng bo'lib, u chiroyli xulq, odob, axloq egasi bo'ladi. Shunday ekan adib bizga ilm har bir yaxshi xislat bilan yonma yon turishi, ular bir-biri bilan mukammalligini uqtiradi.

So'ylasang so'yla yaxshi so'zlardan,

Yo'qsa jim turmoqing erur yaxshi.

O'ylasang yaxshi fikrlar o'yla,

Yo'qsa gung bo'lmoqing erur yaxshi.

Axloq ilmini o'qib, unga amal qilgan kishilar o'zini anglay oladi, yaxshi kishilarni, yaxshi narsalarni, yaxshi narsalarning qimmatini biladi. Yaxshi xulqli inson har bir so'zini o'ylab, o'z o'rnida so'zlaydi, yomon axloq egasi esa keraksiz joyda noo'rin so'zlaydi. Oxir oqibatda o'zi uyalib qoladi va atrofdagilar oldida o'z hurmatini yo'qotadi. Adib keraksiz bo'lgan fikr o'ylashdan ko'ra gung bo'lishni afzal ko'radi.

Asarda Rasuli akram nabiiyi muhtaram sallollohi alayhi vasallam afandimiz: " Bir tog'ning o'rnidan ko'chib ketganini eshitsangiz, ishoningiz, ammo bir odamning xulqi boshqa bo'ldi deb eshitsangiz ishonmangiz"- demishlar.

Barchamizga ma'lumki, inson tug'ilganidan boshlab odob, axloq bilan oila quchog'ida tarbiyalanadi. Inson yoshligidan yaxshi tarbiyalansa, xush xulqli, go'zal odobli bo'ladi. Yaxshi xulqli insonlar bilan muloqot qilgan inson o'zgacha huzurlanadi. Agarda inson yoshligidan axloqsiz bo'lib ulg'aysa, uning xulqini o'zgartirish mushkul ishdir. Axloqsiz inson odobsiz, tarbiyasiz, nodon bo'ladi. Abdulla Avloniy bunday kishilardan yaxshilik kutishni, yerdan turib yulduzlarga qo'l uzatish kabidir deydi. Osmondan yulduzlarni olib bo'lmaganidek, axloqsiz insondan ham yaxshilik kutib bo'lmaydi. Yoshligidan to'g'ri tarbiya olmagan kishi umrining oxirigacha o'zgarmay qoladi, tog'o'z o'rnidan ko'chsa ko'chadiki, lekin insonning xulqi boshqa tarafga o'zgartib qolmaydi deya adib ta'kidlab o'tadi.

Abdulla Avloniy har bir fazilatni bir biriga ajralmas qilib bog'laydi. Ilm axloqining asosi tarbiya deb hisoblaydi. Insonning odob, axloqli, yaxshi xulq egasi bo'lishida tarbiyani muhim omil deb biladi. Tarbiya bu insonni yoshlikdan yaxshi xulqli qilib o'stirish, yomon illatlarni tanitib ulardan uzoqroq bo'lishga o'rgatib voyaga yetkazishdir. Adib tarbiya qiluvchilarni tabibga o'xshatadi. Tabib betob insonga davo berganidek, ular ham bolalarni yoshlikdan ma'nan sog'lom qilib tarbiyalaydi.

Abdulla Avloniy tarbiya haqida shunday deydi: "Alhosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot-yo mamot, yo najot- yo halokat, yo saodat -yo falokat masalasidir". Adib bunda bir- biriga qarama qarshi so'zlar asosida qofiyadoshlikni hosil qiladi. Hayot-mamot, najot-halokat, saodat-falokat kabilar. Har bir so'z o'ziga xos ma'no mazmunga ega

bo‘lib, o‘zaro hosil qilingan ziddiyat asosida tarbiyaning naqadar muhim omil ekanligi ochib beriladi. Tarbiya insonning hayotini asosi, u orqali inson saodatga erishishi yoki aksincha kishida u yetarlicha bo‘lmasa halokatga yuz tutishi hech gap emas. Yaxshi tarbiya berish uchun avvalo inson yaxshi ta‘lim ko‘rishi kerak. Adib ijod yo‘li davomida doimo tarbiyani ta‘lim bilan chambarchas bog‘laydi. Barchamiz bilamizki, ta‘limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta‘limdan ajratib bo‘lmaydi. Tarbiyani yaxshi fazilatlariga yoki yomon illatlarga yo‘naltirish esa o‘zimizga bog‘liqdir.

Yaxshi birla yursa, har kim maqsudi hosil bo‘lur,

Yursa nodonlar ila, bir kun borib qotil bo‘lur.

Kattalar qilgan nasihatni kichiklar olmasa,

Oqibati xulqi buzuq bir beadab johil bo‘lur.

Ushbu baytda Abdulla Avloniy o‘zining axloqiy qarashlarini mukammal yoritib beradi. Barchamiz bilamizki atrofimizdagi insonlar biz uchun muhim ahamiyatga egadir. Har bir inson muhitga va atrofida qilargalarga qarab moslashadi. Agarda inson yaxshi insonlar bilan yo‘ldosh bo‘lsa, u ham shu insonlar qatorida bo‘lishga harakat qiladi. Ammo yomon insonlar bilan yo‘ldosh bo‘lgan insonlar esa aksincha. Shu sababdan otanalar farzandlari qanday bolalar bilan do‘st bo‘layotganligiga ham e‘tibor qaratishlari lozim. Yon atrofda kishilar o‘zining yaxshi xulqi, tarbiyasi yoki tarbiyasizligi va axloqsizligi bilan o‘zgalarga ta‘sir o‘tkazmasdan qolmaydi. Adib yana shuni ta‘kidlaydiki, kattalarning nasihatlariga amal qilish kerakligini, ularning aytganlariga e‘tiborsiz bo‘lmaslik lozimligini uqtiradi.

Xulosa qilib aytganda Abdulla Avloniyning "Turkiy Guliston yoxud axloq" asarining tarbiyaviy ahamiyati necha asrlardan buyon yuqori bo‘lib, yoshlarning yuksak ma‘naviyatli, ma‘nan barkamol shaxs bo‘lib yetishishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu asarni mutoala qilgan, hayot yo‘llarida unda berilgan hikmatlardan foydalana olgan inson o‘z ko‘zlagan maqsadlariga hech qanday to‘siqlarsiz yeta oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: 2008.
2. Begali Qosimov va boshqalar. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2004.
3. Mirzayev S. O‘zbek adiblari. . – Toshkent: Fan, 2002.
4. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. . – Toshkent: 2008.